OYDIN HOJIYEVA SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRINING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Shaxnoza Jumanova
Qo'qon universiteti dotsenti, (PhD)

Hayitboyeva Hushnoza
Qo'qon universiteti talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20458853

Annotatsiya. Maqolada Oydin Hojiyeva she'riyatida tabiat tasvirining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilindi. Shoira ijodida tabiat obrazlari nafaqat tashqi manzara ifodasi, balki inson ichki kechinmalari, ruhiy holati va falsafiy mushohadalarini yorituvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar mobaynida tabiat tasvirlarining metaforik, ramziy va emotsional ifoda imkoniyatlari, shuningdek, ularning lirik qahramon ruhiyati bilan uyg'unligi o'rganildi. Shuningdek, Oydin Hojiyeva she'riyatida tabiat orqali yaratilgan obrazlar tizimi va ularning estetik vazifasi yoritilib, shoira ijodining zamonaviy o'zbek she'riyatidagi o'rni asoslab beriladi.
Kalit so'zlar: she'riyat, tabiat tasviri, badiiy-estetik xususiyatlar, obraz, metafora, ramz, lirik qahramon, poetika, emotsional ifoda, estetik talqin, o'zbek she'riyati, badiiy tafakkur.

Abstract. This article analyzes the artistic and aesthetic features of nature imagery in the poetry of Oydin Hojiyeva. In the poet's творчество, images of nature serve not only as representations of the external landscape, but also as an important poetic means of expressing human inner experiences, emotional states, and philosophical reflections. The study examines the metaphorical, symbolic, and emotional expressive possibilities of nature imagery, as well as their harmony with the psychological world of the lyrical hero. Furthermore, the system of images created through nature in Hojiyeva's poetry and their aesthetic function are explored, and the poet's place in modern Uzbek poetry is substantiated.
Keywords: poetry, nature imagery, artistic and aesthetic features, image, metaphor, symbol, lyrical hero, poetics, emotional expression, aesthetic interpretation, Uzbek poetry, artistic thinking.

Badiiy adabiyotda tabiat tasviri inson ruhiy olamini ochib beruvchi muhim estetik vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, she'riyatda tabiat manzaralari lirik qahramonning ichki kechinmalari, hissiy holati va falsafiy mushohadalarini ifodalashda asosiy poetik yuklama bajaradi. Shu bois tabiat tasviri faqat tashqi borliqni aks ettirish emas, balki inson va olam o'rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy idrok etish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida tabiat obrazlaridan samarali foydalangan ijodkorlar orasida Oydin Hojiyeva alohida o'rin tutadi. Shoira she'riyatida tabiat tasvirlari oddiy manzara sifatida emas, balki chuqur ma'no va ramziy qatlamlarga ega badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Uning ijodida bahor, kuz, shamol, yomg'ir kabi tabiat unsurlari inson ruhiyati bilan uyg'un holda berilib, poetik obraz yaratishning muhim vositasiga aylanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida insonning tabiat bilan munosabati, ekologik ong va estetik tafakkur masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Badiiy adabiyot, xususan she'riyat bu jarayonda insonni tabiat bilan uyg'unlikda tasvirlash orqali uning ma'naviy dunyosini boyituvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi [Jumanova Sh; 3]. Shu jihatdan Oydin Hojiyeva she'riyatida tabiat tasvirining badiiy-estetik xususiyatlarini o'rganish

nafaqat adabiy-estetik, balki tarbiyaviy va falsafiy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek she’riyatida obraz yaratish usullarini tahlil qilish, tabiat tasvirining ramziy va metaforik imkoniyatlarini ochib berish adabiyotshunoslik fanining muhim vazifalaridan biridir.

Oydin Hojiyeva she’riy to‘plamlaridagi tabiat tasviri shoiraning badiiy tafakkurini ifodalovchi muhim estetik qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she’rlarida tabiat obrazlari umumiy tasvir darajasida qolib ketmay, balki muayyan ruhiy holatni aniq ifodalovchi badiiy detal sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan tabiat unsurlari lirik kechinmaning ichki dinamikasini ochib beruvchi asosiy vositalardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi.

Shoira she’riyatida fasllar almashinuvi inson ichki kechinmalari bilan parallel tarzda beriladi. Bahor obrazi ko‘pincha ruhiy uyg‘onish va umid bilan bog‘lansa, kuz tasviri yo‘qotish, sokinlik yoki hayotiy mulohaza kayfiyatini ifodalaydi. Qish obrazi esa ichki iztirob, yolg‘izlik yoki sukut holatlarini kuchaytiruvchi badiiy fon vazifasini bajaradi. Bu holat tabiat tasvirining shunchaki dekorativ unsur emas, balki semantik yuklama tashuvchi poetik birlik ekanini ko‘rsatadi.

Shoiraning ayrim she’rlarida tabiat hodisalari inson hissiyotlari bilan bevosita uyg‘unlashtiriladi. Shamol obrazi ichki beqarorlik va iztirob harakatini ifodalasa, yomg‘ir poklanish, yengillik yoki ruhiy tozalanish holatini aks ettiradi. Bunday tasvirlarda metafora va ramzlar yetakchi o‘rin tutib, tabiat hodisalari inson psixologiyasi bilan uyg‘un badiiy tizimga aylanadi. Shuningdek, Oydin Hojiyeva ijodida tabiat obrazlari personifikatsiya asosida ham yoritiladi. Tabiat unsurlariga insoniy xususiyatlar yuklanib, ular lirik qahramon bilan muloqotga kirishuvchi estetik subyekt sifatida gavdalanadi. Bu usul she’rlarda hissiy ta’sir kuchini oshirib, obrazning ichki mazmunini chuqurlashtiradi.

Shoira she’riyatida tabiat tasviri orqali ifodalangan ruhiy holatlar ko‘pincha dramatik ohangga ega bo‘lib, lirik kechinmaning keskin o‘zgarishlarini ochib beradi. Ayniqsa, ayrim she’rlarda tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi parallelizm kuchli seziladi, bu esa badiiy ifodaning ta’sirchanligini oshiradi.

Qay kun edi…Sizni sog‘indim,
Derazamni ochdim quyoshga.
Tog‘dan tushib keldi kunduzim
Bir savat nur ko‘tarib boshda.[Hojiyeva O ; 209]

Mazkur she’riy parcha Oydin Hojieva lirikasida tabiat tasvirining badiiy-estetik imkoniyatlari keng va ko‘p qatlamli ekanini yaqqol namoyon etadi. She’rning dastlabki misrasi — “Qay kun edi… Sizni sog‘indim” — lirik qahramonning ichki kechinmasi, sog‘inch hissi bilan boshlanib, darhol inson ruhiyati va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yuzaga chiqaradi. Bu yerda sog‘inch — asosiy emotsional markaz bo‘lib, keyingi tasvirlar aynan shu holatni badiiy ochishga xizmat qiladi.

“Derazamni ochdim quyoshga” misrasida ramziy ma’no kuchli: deraza — ichki olam, qalb timsoli bo‘lsa, quyosh — yorug‘lik, umid va iliqlikni ifodalaydi. Demak, lirik qahramon sog‘inchni yengish, ichki bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida o‘z qalbini tashqi olam — tabiatga ochmoqda. Bu yerda tabiat inson ruhiyatini davolovchi, uni muvozanatga keltiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Keyingi misrada — “Tog‘dan tushib keldi kunduzim” — personifikatsiya va metaforik ko‘chish orqali vaqt va makon jonlantiriladi. “Kunduz”ning tog‘dan “tushib kelishi” tasviri tabiat manzarasini dinamik holatda beradi va shu orqali yorug‘likning asta-sekin kengayib borishini ifodalaydi. Bu badiiy tasvir lirik qahramon ruhiyatidagi o‘zgarish — zulmatdan yorug‘likka o‘tish jarayonini ham anglatadi.

So‘nggi misra — “Bir savat nur ko‘tarib boshda” — kuchli poetik metafora bo‘lib, unda quyosh nuri moddiylashtiriladi. “Savat nur” obrazi orqali yorug‘lik mo‘l-ko‘l, saxiy va

hayotbaxsh ne’mat sifatida talqin qilinadi. Bu tasvir nafaqat estetik go‘zallikni, balki ruhiy to‘yinganlik, umid va iliqlikni ham ifodalaydi.

Cho‘tir tunning hikoyalarin
Cho‘kka tushib tinglaydi tog‘lar
Va bulbulning ishq oyatlarin
Talabaday yodlaydi bog‘lar. [Hojiyeva O ; 19]

Ushbu parcha Oydin Hojieva she’riyatida tabiatning jonlantirilgan, ma’naviylashtirilgan obraz sifatida talqin etilishini yana bir bor tasdiqlaydi. Birinchi misrada — “Cho‘tir tunning hikoyalarin” — tun obraziga epitet (“cho‘tir”) berilishi orqali u oddiy vaqt birligi emas, balki murakkab, sirli va go‘yo “izlari bor” mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu ifoda tunning kechinmalar, xotiralar va yashirin haqiqatlarga boy ekanini anglatadi.

“Cho‘kka tushib tinglaydi tog‘lar” misrasida kuchli personifikatsiya kuzatiladi. Tog‘larning “cho‘kka tushib” tinglashi tasviri orqali tabiat unsurlari insoniy xatti-harakat bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu holat tabiatni passiv emas, balki anglovchi, his etuvchi subyekt darajasiga olib chiqadi. Shu orqali shoiraning badiiy-estetik qarashi — tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi chegaraning yo‘qolishi — namoyon bo‘ladi. Keyingi misralarda “bulbulning ishq oyatlari” ifodasi orqali tabiatga ilohiylik va ruhiy yuksaklik yuklanadi. Bulbul nidosi oddiy qush sayrashi emas, balki “oyat” darajasiga ko‘tarilib, muhabbatning muqaddas, ma’rifiy timsoliga aylanadi. Bu yerda poetik metafora orqali ishq tushunchasi yuksak estetik darajada talqin etiladi.

“So‘nggi misra — “Talabaday yodlaydi bog‘lar” — yana bir jonlantirish namunasi bo‘lib, bog‘larning “talaba”ga qiyoslanishi orqali o‘rganish, anglash jarayoni ifodalanadi. Tabiat go‘yo bilim olishga intilayotgan ongli mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu esa she’rga o‘ziga xos intellektual va falsafiy chuqurlik bag‘ishlaydi. Oydin Hojieva ijodida tabiat obrazlarining insoniy tuyg‘ular bilan chuqur uyg‘unlashgan holda tasvirlanishini yorqin ifodalaydi. Lirik qahramon daryolarga murojaat qilib, ularni “quvnoq singillarim” deya ataydi. Bu bevosita murojaat (apostrofa) va personifikatsiya orqali tabiat unsurlari qarindoshlik rishtalari bilan bog‘lanadi. Natijada daryo oddiy geografik obyekt emas, balki yaqin, mehrli va sog‘inch uyg‘otuvchi tirik obrazga aylanadi.

— Daryolarim, mening quvnoq singillarim,
Gulparastim, mangu uyg‘oq singillarim,
Necha yilki, bo‘yningizga borolmadim,
Mavjingiz-la quvalashib yurolmadim.
Oshig‘ingiz – majnuntollar omonmikan?
To‘lqiningiz beshik – beshiksimonmikan? [Hojiyeva O ; 18]

“Gulparastim, mangu uyg‘oq singillarim” misralarida epitetlar orqali daryolarning go‘zallikni sevuvchi va doimiy harakatda bo‘lgan tabiati poetiklashtiriladi. “Mangu uyg‘oq” sifati ularning to‘xtovsiz oqimini, hayotiy energiyasini bildiradi va shu bilan birga lirik qahramon ruhiyatidagi tiriklikka intilish bilan hamohangdir. Keyingi misralarda sog‘inch motivi kuchayadi: “Necha yilki, bo‘yningizga borolmadim...” Bu yerda “bo‘yniga borish” iborasi ramziy bo‘lib, tabiat bag‘riga qaytish, ruhiy yaqinlikni tiklash ma’nosini anglatadi. Lirik qahramonning daryolardan uzoqligi aslida uning ichki uyg‘unlikdan, bolalik yoki beg‘ubor davrlardan uzoqlashganini ham bildiradi.

“So‘nggi misralarda — “Oshig‘ingiz – majnuntollar omonmikan? / To‘lqiningiz beshik – beshiksimonmikan” — tasvir yanada chuqurlashadi. Majnuntol obrazining “oshig‘” sifatida berilishi tabiat unsurlari o‘rtasida ham muhabbat aloqasi mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa tabiatni yaxlit, hissiy tizim sifatida talqin qilishga olib keladi. “To‘lqinning beshikka qiyoslanishi” esa sokinlik, mehr va hayotning boshlanish nuqtasini eslatadi. Beshik obrazi orqali daryo nafaqat harakat, balki parvarish va himoya timsoliga ham aylanadi.

Umuman, mazkur parcha Oydin Hojieva she'riyatida tabiatning antropomorfik, ya'ni insoniylashtirilgan tasviri ustuvor ekanini, uning orqali sog'inch, mehr, xotira va ruhiy uyg'unlik kabi kechinmalar badiiy-estetik jihatdan teran ifodalanishini ko'rsatadi. Oydin Hojieva she'riyatida tabiat tasviri nafaqat estetik manzara sifatida, balki chuqur ma'naviy-psixologik mazmunni ifodalovchi badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil qilingan she'riy parchalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, shoiraning ijodida tabiat unsurlari — quyosh, tog', tun, bog' va daryolar — jonlantirilgan obrazlar sifatida insoniy kechinmalar bilan uzviy bog'lanadi.

Uning she'riyatida personifikatsiya, metafora, ramz va apostrofa kabi badiiy vositalar yetakchi o'rin tutib, tabiatni faol, his etuvchi va hatto fikrlovchi mavjudot darajasiga ko'taradi. Bu esa lirik qahramonning ichki dunyosi bilan tabiat o'rtasida kuchli ruhiy uyg'unlikni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, sog'inch, mehr, xotira va hayotiy falsafa kabi motivlar tabiat obrazlari orqali yanada ta'sirchan va chuqur ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyeva O. Alla. – Toshkent: Info Capital Books, 2022. – 292 b.
2. G'afurov, I. (2010). *She'riyat poetikasi va badiiy tafakkur*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. JUMANOVA, S. O 'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA PEYZAJ LIRIKASINING POETIK AHAMIYATI. FİLOLOJİ VE KÜLTÜR ARAŞTIRMALARI, 121.
4. Jumanova, S. (2022). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KUZ MOTIVI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 29-29.
5. Rakhmanova, G. Z., & Jumanova, S. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. *JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH AND TRENDS IN EDUCATIONAL SCIENCES.*
6. Yo'ldoshev, Q. (2017). *Badiiy matn va uning tahlili*. Toshkent: Universitet.